

MEDIARESURSLAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING OMILI SIFATIDA

Umarova Zaxro Abduraxim qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti Matematika va ta'limdi axborot texnologiyalari kafedrasini dotsent v.b., pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD).

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pedagogik dizayn asosida mustaqil ta'limni loyihalashtirish, qulay o'quv muhiti va media kontentini taqdim etish orqali talabalarining faolligi va mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish, natijada esa mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga erishish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mediaresurslar, pedagogik dizayn, instructional design.

“Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda” [1]. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda va o'quv jarayoni sifatini oshirishda talabalarining ijodiy faoliyat yuritishi va ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan mustaqil ta'lim jarayoni alohida o'rinni tutadi. Sababi “o'z mehnati bilan olingan bilim juda katta qiymatga ega. Shunday qilib, o'qitishning muvaffaqiyati talabalarining bilim olishga bo'lgan munosabati, bilim olishga intilishi, qiziqishi, bilim, ko'nikmalarni ongli ravishda va mustaqil ravishda o'zlashtirishi bilan belgilanadi” [2].

Shu o'rinda talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirish va ularning mustaqil ta'lim jarayonida faolligini oshirishda nima muhim rol o'ynaydi degan savol tug'iladi.

Ko'pgina talabalar o'zlarining mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etishda ko'plab darsliklar, qo'llanmalar va turli internet, radio va televizor kabi ma'lumot manbalari mavjud bo'lishiga qaramay, o'qituvchi tomonidan (sezilarli tashkiliy va uslubiy) ko'makga ehtiyoj sezadilar. Mustaqil ta'lim jarayonda o'qituvchilar tomonidan talabalar bilan bevosita interaktiv aloqada bo'lish imkonini yaratish bilan bir qatorda, faoliyatlarini nazorat qilib, xato va kamchiliklarini ko'rsatib, ularning mazmuni, kelib chiqish sabablarini anglashga, mustaqil tuzatishga imkon beradigan muhitni yaratishi talab etiladi.

Shu sababli, bugungi kunga kelib samarali o'quv jarayonini tashkil etish, uni zamonaviy o'quv materiallari va didaktik vositalari bilan jihozlash, ya'ni pedagogik dizayn masalalariga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Pedagogik dizayn samarali ta’lim jarayonini tashkil qilish uchun maqbul o‘quv muhiti va shart-sharoitlarini yaratishdan tortib zamonaviy o‘quv materiallarini, xususan, axborot texnologiyalariga asoslangan o‘quv materiallarini loyihalashtirishgacha bo‘lgan jarayonlarni ham ko‘rib chiqadi [4]. Bir so‘z bilan aytganda, pedagogik dizayn o‘quv jarayonini soddalashtirishga va qulay o‘quv muhitini yaratishga yordam beradi.

“Pedagogik dizayn” tushunchasi “Instructional design” atamasining tarjimasidir.

K.G. Krechetnikovning fikricha: “pedagogik dizaynning asosiy maqsadi – ta’lim oluvchi uchun o‘zaro aloqa va turli xil ta’lim resurslari birikmasi asosida oqilona tashkil etish, psixologik jihatdan qulay va pedagogik jihatdan subektlarning asoslangan rivojlanishini ta’minlovchi muhitni yaratish va qo’lllab-quvvatlashdir”.

Mustaqil ta’lim jarayonini pedagogik dizayn talablari asosida isloh qilish orqali nafaqat soddalashgan va qulay o‘quv muhitini yaratishimiz, balki mazkur muhit orqali beriladigan o‘quv resurslarini ham samaradorligini ta’minlash uchun turli shakllarda taqdim etish masalalarini ham hal etishimiz mumkin.

O‘quv kontenti xuddi taom singari uni qanchalik ishtaxa bilan iste’mol qilinsa, o‘rganish jarayonining mazmuni, ichki qiymati qanchalik aniq va yaqqol bo‘lsa, shuncha yaxshi qabul qilinadi [3]. Ta’lim samaradorligi ta’lim oluvchilarining o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasiga bevosita bog‘liq[6].

Inson o‘zi uchun qiziq bo‘lgan, uning qiziqishlari va shaxsiy qarashlariga eng mos keladigan, o‘ziga jalb etadigan ma’lumotlarni yaxshiroq qabul qiladi[3]. Medianing barcha uchun qiziqarli va jozibali ekanligini inobatga olsak, mustaqil ta’lim jarayoniga ta’limiy maqsadlar asosida mediaresurslardan foydalanish talabalar o‘quv motivatsiyasini oshirishda eng yaxshi yechimlardan biri deb ayta olamiz.

Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda mediaresurslar – axborot resursi, yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, elektron ta’lim resursi bo‘lib xizmat qiladi.

Mediaresurslar – bu mustaqil ta’lim jarayonining muhim komponenti sifatida uni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan va raqamli shaklda taqdim etiladigan ta’lim resurslaridir. Mustaqil ta’lim jarayoni har bir ta’lim oluvchi uchun qiziqarli va jozibador bo‘lishi uchun turli shakldagi ta’lim resurslari: videoma’ruzalar, matn va grafik materiallar, simulyatorlar, o‘yinlar, trenajyorlar, so‘rovlar sifatida ifodalaniluvchi interaktiv elementlar va h.k., ya’ni mediaresurslardan iborat bo‘lishi kerak[5].

Ta’lim resurslarida qaror qabul qilish jarayonini rag‘batlantirish orqali bilimlarni shakllantirishni jadallashtirish imkoniyati mavjud. O‘quv materiallarining mazmunini tez va aniq idrok qilinishini ta’minlash orqali ushbu imkoniyatga erishish mumkin.

Ta’lim berish maqsadida biron bir mavzu bo‘yicha ma’lumot berish uchun foydalanilgan har qanday vosita ta’limiy medairesurs hisoblanadi. Mazkur o‘quv vositalaridan joyidan va vaqtidan qat’iy nazar, uyda yoki auditoriyada, mustaqil ta’lim jarayonida hamda rasmiy (formal) ta’limga qo‘srimcha sifatida ham foydalanish mumkin.

Mustaqil ta’lim jarayoni ko‘pchilik talabalar tomonidan murakkab jarayon sifatida talqin etilishiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- talabalarning mustaqil tayyorgarligining yetarli emasligi, ya’ni o‘z mustaqil ta’limini tashkil etish va boshqarishga oid yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi;
- talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida motivatsiyaning yetishmasligi;
- mustaqil ta’lim jarayoni uchun qulay muhit va o‘quv resurslarning yetishmasligi va h.k;

Keling, mazkur sabablarni pastdan yuqoriga tomon batafsil ko‘rib chiqish orqali biz taklif etayotgan medairesurslarning tatbig‘i ushbu holatga qanday ta’sir etishiga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Medairesurslar – mustaqil ta’lim jarayoni uchun qulay muhit va oson qabul qilinuvchi o‘quv resurslarni taqdim etishni ta’minkaydi. Inson psixologiyasiga ko‘ra, mustaqil ta’lim jarayonini faqat ma’ruza matnlari yoki biror kitobni mutolaa qilish orqali tashkil etilishiga qaraganda u uchun qulay bo‘lgan audio, video, tasvir, infografika, longread kabilar orqali yetkazilgan ma’lumot yaxshiroq o‘zlashtirilishi hamda uzoq vaqt esda qolishiga erishiladi.

Mustaqil ta’lim jarayoni medairesurslar bilan to‘ldirilgach, u avvalgi an’anaviy usulga qaraganda talaba uchun qiziqarli va oson tarzda qabul qilinishi natijasida esa unda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiya paydo bo‘ladi.

Motivatsiya talabani har qanday mashaqqatlari jarayon, hattoki – mustaqil tarzda o‘qib o‘rganishga undaydi, u o‘ziga qulay bo‘lgan usullarni izlaydi, qaysi turdagiligi medairesurs orqali ma’lumotni yaxshi o‘zlashtira olganidan kelib chiqib, endilikda u o‘z mustaqil ta’limi davomida mazkur tipdagi materiallarga ko‘proq murojaat qiladi.

Demak, ko‘rinib turibdiki, medairesurslar samarali vosita. Ular yordamida nafaqat mustaqil ta’lim jarayonini qiziqarli tashkil etib, uning samaradorligini oshirish, balki talabablarni mustaqil ta’lim jarayoniga tayyorgarligini rivojlantirishda ham ulardan bevosita foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суюнчимиздир: <http://www.aza.uz>
2. Миронова Е.Д. Современные информационные технологии как средство повышения эффективности обучения // Инновационное образование и экономика. – Москва, 2015. – Т. 1. – № 19.
3. Умарова З.А. Эффективность организации самообразования в электронной образовательной медиа среде // International conference on Language and Literature Proceeding 2022, 44-46.
4. Абызова Е.В. Педагогический дизайн: понятие, предмет, основные категории // Вестник ВятГУ. – В., 2010. № 3:
5. NA Muslimov, ZA Umarova The role of media resources in the process of self-education // International Journal Papier Public Review, 2021. Vol.2 Issue 1. 49-53 p.
6. Umarova Z.A. Effectiveness of organizing students' self-education with the facilities of media resources in educational media environment // Revista geintec-gestao inovacao e tecnologias. 2021. Vol. 11 Issue 2. 756-764.
7. Umarova F.A. Use of modern information and communication technologies in the training of designers / Journal of Central Asian Social Studies 2020/8/15
8. Umarov Kh.A. Innovative methods of improving professional and pedagogical competencies of future teachers / European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 2020